

## ZAMONAVIY ARXITEKTURADAGI STILLAR

Umedulloev Munirbek Mirzoqul o‘g‘li

Usmonov Said Furqat o‘g‘li

Termiz davlat Muhandislik  
va agrotexnologiyakar universiteti“Bino va inshootlar  
qurilishi” kafedrasи o‘qituvchilari[munirbeku93@gmail.com](mailto:munirbeku93@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy arxitekturaga oid stillar va ularning lug‘aviy ma’nolari, ularning kelib chiqish, rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumotlar keltirib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** arxitektura, modern, funksionalizm, neoplastitsizm, metabolizm.

Zamonaviy arxitektura XIX asrning o‘rtalarida ishlab-chiqarish, fan va texnika taraqqiyoti natijasida paydo bo‘ldi. Ayniqsa, metal (po‘lat) qazish, qayta ishslash texnologiyasining rivojlanishi arxitekturada mislsiz o‘zgarishlarga olib keldi, tarixiy uslublarning tadrijiy taraqqiyoti inqilobiy ilg‘or yo‘nalishlar bilan almashindi. Bu davrga kelib “Yangi arxitektura” ning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, texnik va badiiy omillar shakllanib bo‘lgan edi. Qarshiliklarga qaramay, ilg‘or an'analar eklektikani chekkaga surib arxitekturada o‘z o‘rniga ega bo‘lib bordi.

XIX-XX asrlar chegarasida - modern uslubi arxitekturaning bir-necha ming yillik rivojlanish yo‘llarini o‘zgartirib yubordi. Bu davr ilg‘or g‘oyalarga boy edi.

1920 yillarga kelib Yevropa arxitekturasida funktionalizm, neoplastitsizm va ekspressionizm singari avangard uslublar paydo bo‘ldiki, ularda shakl berishga ko‘proq e’tibor qaratildi. Shuningdek, qurilma, funksiya va shaklga ratsional mazmun berishga harakat qilindi.

Ikkinci jahon urushidan so‘ng arxitektura taraqqiyotining uzviy davomi sifatida yangi funksionalizm paydo bo‘ldi. 1950 yillarga kelib Yevropa arxitekturasida har xil yangi oqimlar kuzatildi: brutalizm, metabolizm, xay-tek va dekonstruktivizmlar

shular jumlasidandir.

**FUNKSIONALIZM** (lot. funksio - bajarish) - XX asr zamonaviy memorchiligining asosiy uslubi bo'lib, unda bino tashqi ko'rinishi, qurilmalari va rejaviy yechimi bajaradigan vazifasiga monand bo'lishi zarur. Oddiy geometrik shakllar, uncha katta bo'limgan derazalar, vazifasiga qarab binoni bir nechta bloklarga bo'lish, uncha katta bo'limgan massshtab funksionalizm uslubiga xosdir. Funksionalizm bir qator arxitekturaviy va shaharsozlik tamoyillarini oldinga surdi : turar-joy binolari qurilishini tiplashtirish , ratsional xonadonlar qurish va ochik hududda yirik turar-joy komplekslari bunyod etish shular jumlasidandir.

Bu uslubda Le Korbyuze, A.Aalto singari ko'pgina memorlar ijod qilgan. Funksionalizmga xos bo'lgan belgilar quyidagilardan iborat:

- erkin assimmetrik tarh;
- bajaradigan vazifasiga qarab xonalarni guruhlash va alohida binolarga jamlash;
- oddiy geometrik arxitekturaviy shakllar;
- tasmasimon oynalar;
- yassi tomlar;
- klassik uslublarga xos bezaklardan holilik.

**KONSTRUKTIVIZM** (lot.-qurilish)-1920-1930-yillarning birinchi yarmida sobiq Ittifoq arxitekturasidagi avangard yo'naliishdir. Bu yo'naliishning nazariy poydevorini M.Ya. Ginzburg yaratgan. Konstruktivizm uslubida bino tashqi ko'rinishini ifodalovchi shakllar uning qurilmalari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yaratiladi. Bu uslubdagi binolarga geometrik shakllarning sofligi, memoriy kompozitsiyalarning yaxlitligi xosdir. L.,V. va A. Vesninlar ushbu uslubning yirik namoyondalari bo'lishgan.

**EKSPRESSIONIZM** (lot. - ifodalash) - XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan. Ekspressionizmda rang-tasvir va shunga o'xshash ikki o'lchamli san'at turlaridagi ifodalash usullarini uch o'lchamli arxitektura asarlariga ko'chirishga harakat qilingan. Ekspressivligini oshirish uchun binoda egiluvchan dinamik shakllardan foydalanish,

tashqi profillarni bo'rttirib ko'rsatish, bino obrazining emotsionalligini oshirish ekspressionizm yo'naliشiga xosdir.

Eng mashhur arxitektor-ekspressionistlar deb G. Pelsig, E. Mendelson, G. Sharunlarni aytish mumkin.

*ORGANIK ARXITEKTURA* - XX asr boshlarida paydo bo'lgan arxitekturaviy yo'naliш. Tabiiy muhitga monand, tashqi ko'rinishi ichki tuzilishidan kelib chiqadigan binoni organik arxitekturaga xos deyish mumkin. "Organik arxitektura" so'zi dastlab Luis Salliven tomonidan aytilgan va bu bilan u funksiya va shaklning mos kelishi kerakligini ifodalamoqchi bo'lgan. Bu nazariyani hayotga tadbiq qilgan arxitektor Frank Lloyd Rayt bo'ladi.

*METABOLIZM* (gr.- o'zgarish) - 1960-yillarda Kenzo Tange va boshqa bir qancha yosh yapon arxitektorlari orasida tarqalgan, metamorfizm tushunchasini o'zida singdirgan arxitekturaviy yo'naliш. Ushbu yo'naliшning mazmuni shundaki, arxitekturaviy obekt va shaharsozlik muhiti vaqtida o'zgaruvchan, ko'chuvchan deb qaraladi, shuningdek o'zaro organik ko'chuvchan shakllar bino va muhitning obrazida o'z ifodasini topadi. Yapon arxitektori K. Kurokava metabolizmning nazariy asoslarini birinchi bo'lib shakllantirgan. U metabolistik bino va inshootlar tirik organizmlardek o'sishi kerak deb hisoblagan. Namoyondalari K. Tange, K. Kurokava, K. Kikutake va boshqalar.

*NEOPLASTITSIZM* - 1920-yillarda Gollandiyada vujudga kelgan. Neoplastitsizmning estetik konsepsiysi - oddiy yorqin ranglarga bo'yalgan gorizontal va vertikal chiziq va yuzalarning geometrik abstraksiyasi bilan bog'liq edi. Qurilmaning badiiy ifodasini kuchaytirish uchun rangdan foydalanishgan. Tashqi va ichki muhitlarning o'zaro chambarchasligi, devorlar yuzasini alohida qismlarga bo'lish, rang va fakturaning kiritilishi tan olingan arxitekturaning yangi tamoyillari hisoblangan. Arxitektorlar Ya. Aud, G. Ritveld ushbu uslubning namoyondalari hisoblanishgan.

*RATSIONALIZM* ( lot. - aqlli) - XX asr 1-yarmidagi zamonaviy fan va texnika yutuqlarini egallagan arxitekturaviy yo'naliшlar to'plami. Ratsionalizm keng

ma'noda jamiyatning zamonaviy qarashlariga mos keluvchi arxitekturaviy yo'nalishlar va fan, texnika zamonaviy yutuqlari haqidagi san'atning to'plami. Bino va inshootlarga qo'yiladigan iqtisodiy, sotsial, texnik, gigienik va hokazo talablarga javob beradigan arxitektura ratsional deb ataladi. Ratsionalizm namoyondalari ratsional qurilmaviy, me'moriy-rejaviy va badiiy yechimlarni topish uchun zamonaviy qurilish materiallari va usullaridan foydalanishadi.

A.Aalto, N.A.Ladovskiy, K.S.Melnikov va bir qancha arxitektorlar o'zlarini ratsionalchilar deb atashgan.

*BRUTALIZM* (ingl. -dag'al)-1950-yillar Britaniyada (arxitektorlar A. Va P. Smitson) paydo bo'lgan va keyin G'arbiy Yevropa, AQSh va Yaponiyada tarqalgan yo'nalish. Brutalizm uslubi namoyondalari ijodida qurilmalarni ochiq ko'rsatishga, oddiy va "dag'al" me'moriy shakllardan badiiy foydalanishga harakat qilinadi. Po'lat, temir-beton, g'isht va oyna kabi qurilish ashyolari tabiiy ko'rinishini yashiradigan har qanday usullar inkor qilinadi.

Brutalizmning dastlabki rivojlanish bosqichida tosh, g'isht va yog'ochning badiiy ifodasini ko'rsatishga harakat qilingan. Ushbu uslubning ta'siri O. Ungers, P. Rudolf, Dj. Stirling kabi bir qator dunyoga mashhur arxitektorlar ijodida sezilib turadi.

*XAY-TEK* ( ingl. high technologe - yuqori texnologiya) - XX asr 70-yillari oxirida vujudga kelgan uslub. Ushbu uslubga mansub binolarda texnika nafaqat o'ziga xos bo'lgan vazifani, balki bezak vazifasini ham bajaradi. U har xil ilmiy ishlanmalarni estetik o'zlashtiradi. Xay - tek uslubida qurilgan binolarda yangi qurilish ashyolarining yuqori sifati namoyon bo'ladi. Xay - tek uchun muhandislik inshootlariga xos bo'lgan quvur, konteyner, ishlab-chiqarish yig'ma modullarini eslatadigan shakllar xosdir. Bu uslubda quvurlar, havo so'radigan uskunalar ochiq namoyon bo'ladi, metall, oyna va betondan aktiv foydalaniladi. Har qanday bezaklardan xoli bo'lgan ushbu uslubda oynavand yuzalarga tushadigan yorug'lik o'yini va xromlangan qurilmalarning yaltirashidan keng foydalaniladi.

Xay-tek uslubining bugungi kundagi yo'lboshchilari ingliz arxitektorlari N.

Foster va R. Rojers hisoblanishadi.

**ARXITEKTURA-HAYKALTAROSHLIK**-1960 yillarga kelib qurilish amaliyotida arxitekturaviy-haykaltaroshlik shakllaridan foydalanish urf bo‘la boshladi. Le Korbyuze, Kenzo Tange ,Oskar Nimeyer va Yorg Utsonlar ushbu yo‘nalishning yirik namoyondalari bo‘lishgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dusbekov, T., & Umedulloev, M. (2021). LINKING A MODERN INTERACTIVE METHOD TO THE METHOD OF AUDIO SLIDE PEDAGOGICAL TECHNOLOGY. Экономика и социум, (12-1 (91)), 194-198.
2. O‘G‘Li, U. M. M. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASALARINI BOSHQARUV VAZIFALARI. Science and innovation,2(Special Issue 14), 91-95.
3. RAQAMLASHTIRISH TA’LIM MUHITIDA BO’LAJAK MUHANDISLARNING TEXNIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHIRISH (MATERIALLAR QARSHILIGI FANI MISOLIDA). (2025). Zamonaviy ta’lim va rivojlanish,23(3), 264-267. <https://scientific-jl.com/mod/article/view/7669>
4. MMUmedulloev, E.O’.Xursandov. (2023). YOG`OCH MATERIALLAR VA ULARNING STRUKTURASI TARKIBIY TUZILISHI VA VAZIFASI. IQRO,7(1), 210–216. <https://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/view/3528> dan olindi
5. Ziyodullayeva Madina Ilhomova, & Umidullayev Munirbek Mirzoqul o‘g’li. (2022). KIMYOVIY QO’SHEMCHALARING BETON ARASINING XUSUSIYATLARIGA TA’SIRI. Academicia Globe: Inderscience Research,3(05), 205–206. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/SBPXZ>